

FRANSUZ MILLIY MADANIY SO'ZLARI**Shaxobiddinova Shahlo Muhammad qizi**

O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi

Hayitboyeva Dilnoza Ne'mat qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti 1-bosqichi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6603326>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz tilining milliy madaniyatini ochib beradigan so'z va iboralarga kengroq ta'rif berib, tushuntirishga harakat qilindi. Har bir tilda shunday so'zlar mavjudki, u so'zni eshitgan yoki o'qigan shaxs qaysi xorijiy mamlakat haqida gap ketayotganini darrov bilib olishi mumkin, ya'ni bittagina so'z orqali biror-bir shaxs o'sha mamlakat madaniyatini tushunib ola oladi. Fransuz tilidagi ana shunday so'zlarni va o'zgacha til uslublarini chuqurroq o'rganib, boshqalarga ham foydali bo'lsin degan maqsadda ular haqida ham maqolada batafsil yoritib o'tishga qaror qilindi.

Kalit so'zlar: baget, neologizm, milliy so'z, madaniy so'z, ibora, frangalais, shampän

ФРАНЦУЗСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ КУЛЬТУРНЫЕ СЛОВА

Аннотация. В данной статье делается попытка объяснить и более подробно объяснить слова и словосочетания, раскрывающие национальную культуру французского языка. В каждом языке есть такие слова, что человек, услышав или прочитав слово, сразу узнает, о какой чуждой стране он говорит, то есть с помощью одного слова можно понять культуру этой страны. Было решено более подробно изучить такие слова и уникальные языковые стили во французском языке в статье, чтобы быть полезными другим.

Ключевые слова: багет, неологизм, национальное слово, культурное слово, словосочетание, франгале, шампанское.

FRENCH NATIONAL CULTURAL EXPRESSIONS

Abstract. This article seeks to explain and explain in more detail the words and phrases that reveal the national culture of the French language. There are words in every language that a person who hears or reads the word can immediately know which foreign country he is talking about, that is, with a single word, one can understand the culture of that country. . It was decided to study such words and unique language styles in French in more detail in the article in order to be useful to others.

Keywords: baguette, neologism, national word, cultural word, phrase, frangalais, champagne

KIRISH

Fransuz tilini o'rganib kelayotgan, shu tilda ish faoliyati olib borayotganlar bilishadiki, bu xorijiy til, dunyodagi boshqa ko'plab tillar singari, so'nggi yillar ichida juda rivojlanib bormoqda. Muntazam ravishda tilda yangi so'zlar ya'ni neologizmlarning paydo bo'lishi, eskirgan so'zlarning tildan chiqib keta boshlashi buning yaqqol isbotidir. Ammo, har bir tilda shunday so'zlar mavjudki, ular tilning madaniyatini namoyon qilib bera oladi. Bu so'zlarni nafaqat shu davlatning o'zida, xalqi orasida yashash orqali bilib olish, balki shu tilda yozilgan asarlarni muntazam mutola qilish orqali ham o'rganish mumkin. Misol tariqasida Le Klezioning

o'zbek tiliga bevosita Shoazim Minovarov tomonidan tarjima qilingan "Mondo" asarining fransuz milliy madaniyatini ochib bera oladigan ayrim parchalarni olaylik.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Asardan parcha:

La petite femme était debout devant la table et elle versait le thé dans les bols :

- « Est-ce que tu aimes le thé ? »

- « Oui », dit Mondo.

- « Alors viens t'asseoir ici. »

Mondo s'asseyait lentement sur le bord de la chaise et il buvait. Le breuvage était couleur d'or aussi, il brûlait les lèvres et la gorge.

Shoazim Minovarov tarjimasi :

Pakana ayol stolning yoniga yaqinlashib, piyolalarga choy quydi:

- "Choyni yaxshi ko'rasanmi?"

- "Ha", -dedi Mondo.

- "Unda yaqinroq kel"

Mondo stulga ohista o'tirdi va choy icha boshladi. Choy ham oltin rangda tovlanar, lablarini va tomog'ini kuydirar edi.

Bu parchada " thé" so'ziga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbeklardagi kabi fransuzlarda ham uyga kelgan mehmonga iltifot yuzasidan choy taklif qilish odati borligi ko'rinib turibdi. Ya'ni, aslida ko'zlangan maqsad mehmonni dasturxonga taklif qilish maqsadida, unga choy ichishga taklif qilish, bu orqali unga ehtirom ko'rsatish, hurmatini joyiga qo'yishdir. Yigirma birinchi asr boshlarida yozilgan ushbu asarda ochib berilgan bu urf-odat, hozirgi kunga qadar fransuz an'analarining ajralmas bir qismi bo'lib kelmoqda.

« Mondo » asaridan olingan boshqa bir parchada ham fransuzlarning etnogenziga singib ketgan yana bir urf-odatni ko'rish mumkin.

Asardan parcha:

Un jour, il y avait eu un grand vent, et le Gitan avait dit à Mondo : « Allons voir la bataille des cerfs-volants. » C'était seulement les dimanches de grand vent que les batailles de cerfs-volants avaient lieu. Ils étaient arrivés sur la plage de bonne heure, et les enfants étaient déjà là avec leurs cerfs-volants. Il y en avait de toutes sortes et de toutes les couleurs, des cerfs-volants en forme de losange, ou de carré, monoplans ou biplans, sur lesquels étaient peintes des têtes d'animaux.

Shoazim Minovarov tarjimasi :

Kunlarning birida, qattiq shamol esa boshladi va Lo'li Mondoga : » Yur, varraklar musobaqasini ko'ramiz » , -deb qoldi. Varraklar musobaqasi faqat kuchli shamol esadigan yakshanba kunlari o'tkazilardi. Ular erta tongdayoq sohilga keldilar. Varrak ko'tarib olgan bolalar allaqachon sohilda edilar. Varraklar turfa xil-to'rtburchak, romb, kvadrat, ikki qamishli, besh qamishli bo'lib, ustilariga turli jonivorlarning qiyofalari chizilgandi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ushbu parchadan ularda varrak ya'ni "cerf-volant" musobaqasi oldin ham mavjud bo'lganligi anglashiladi. Fransuzlar orasida ushbu milliy musobaqa, shu darajada ommaviylashib ketdiki, xatto keyinchalik xalqaro festival darajasiga ham yetdi.

Fransiyada, 1980-yilda Xalqaro Varrak festivali tashkil etildi va bu festival har ikki yilda bo'lib o'tadi. Va bu festivalning bu yil 23-apreldan 1-mayga qadar bo'lib o'tganligi bu festivalning qamrovi tobora kengayib borayotganligining yaqqol dalilidir.

Bu kabi parchalar Sh. Minavvarov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan Fransua Moriakning « Ilonlar changalida » asarida ham uchratish mumkin.

Asardan parcha :

C'est alors que ma mère triomphante me rendit des comptes que, d'ailleurs, elle ne me devait pas (puisque le plus gros de la fortune venait de sa famille). Cinquante mille francs de rente, sans compter les coupes de bois, constituaient à cette époque, et surtout en province, une « jolie » fortune, dont tout autre garçon se serait servi pour se pousser, pour s'élever jusqu'à la première société de la ville.

Shoazim Munavvarov tarjimasi :

Shunda onam rasmiy ravishda hisob-kitob qog'ozlarini menga uzatdi, aytmoqchi hech kim uni bunga majbur qilolmasdi, negaki, mulkning asosiy qismi uning mahri hisoblanardi. O'rmondan tushayotgan mablag'ni hisobga olmaganda, ellik ming frank daromad o'sha paytda, ayniqsa, tumanda « yaxshigina » davlat hisoblanardi va mening o'rnimda boshqa odam bo'lganda, kelajakni o'ylab, shaharning oq suyaklari darajasigacha ko'tarilishi uchun foydalangan bo'lardi.

Bu parchadan tarjimonning asardagi mazmun-mohiyatni, ya'ni boshqa bir xalq urf-odatini o'zbek tiliga o'girish orqali o'zbekchalashtirishiga guvoh bo'lish mumkin, ya'ni « le plus gros de la fortune venait de sa famille » gapiga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi. Bu gap so'zma-so'z tarjima qilinsa, « uning oilasidan katta xazina kelardi » ma'nosini beradi. Aynan, e'tiqod jihatdan oladigan bo'lsak, asarda xristian diniga e'tiqod qiladigan ayol va uning farzandi haqida gap ketmoqda. Ammo, mazmun jihatdan olinadigan bo'lsa, bu o'zbek tiliga mahr deb tarjima qilingan. Bu o'rinda bir tildan boshqa tilga tarjima qilish orqali biroz g'alizlik yuzaga kelgandek tuyiladi. Qanday qilib, xristian diniga e'tiqod qilayotgan ayol mahr olishi mumkin ? Ma'lumki, mahr islom dinida er va xotin orasida nikoh rishtasi bog'langan payt, erning ayoliga beradigan hadyasi hisoblanadi. Bu asarning o'zbek tiliga tarjima qilingan variantini o'qigan kitobxonda, urf-odatlar yoki diniy-marosimlar yuzasidan savollar paydo bo'lishi va asardagi tub mazmunni tushunmasligiga ham olib kelishi mumkin. Shu o'rinda, Nizomiddinova N.ning quyidagi bildirib o'tgan fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi : « Asl nusxadagi tarixiy va miliy o'ziga xoslikning barcha unsurlarini saqlab bo'lmaydi, lekin ularning orasidan shundaylarini ushlab olish kerakki, natijada o'quvchida tarixiy va milliy muhit tasavvuri paydo bo'lsin. »

MUHOKAMA

Milliy taomlar, ularning iste'moli, milliy marosimlarda tayyorlanishi kabi madaniy axborotlar ham har bir xalqning milliy manzarasini yaratib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga taomlar iste'molida ham universal va unikal holatlar kuzatiladi. Masalan, musulmonlarda cho'chqa go'shti "harom" sanaladi, hindlarda mol go'shtini iste'mol qilish juda katta gunoh, boshqa xalqlar uchun esa ushbu hayvon go'shtlari kundalik iste'mol ishlanmasi sanaladi. Zaharli chinqiroq ilondan tayyorlangan xo'rak AQShning Oklaxoma shtatidagi Okin degan joyida mahalliy aholining bayram dasturxonidagi eng lazzatli taom hisoblanadi. Misrda esa chigirtkadan tayyorlangan ovqat eng lazzatli taomlar qatorida turadi. Bunday ma'lumotlar esa, eng avvalo, badiiy adabiyotlarda o'z aksini topadi.(2)

Bunga yanada ochiqlik kiritish maqsadida « Ilonlar changalida » asariga yuzlanish to'g'ri bo'ladi.

Asardan parcha :

J'obligeai ma mère à mettre bas les maisons de torchis où nos métayers vivaient mal, nourris de cruchade et de pain noir.

Shoazim Munavvarov tarjimasi :

Onamni qora non va go'ja yeb tirikchilik qiladigan xo'randalarimiz yashaydigan somon suvoqli uylarni buzib tashlashga majbur qildim.

Ushbu parchada berilgan « cruchade » so'zi o'zbek tiliga go'ja deb tarjima qilingan. Aslida esa, bu Bordo viloyatining milliy taomlaridan birida hisoblanadi. Va bu yozning chillasida o'zbeklar yeydigan taom hisoblanmaydi. Fransuz izohli lug'atiga yuzlaniladigan bo'lsa, bu taomni quyidagicha izohlaydi: “(cuisine) Brouillie de mais.”

2. Shirinova R. dissertatsiya “Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi”

Ya'ni bu aslida qaynatilgan makkajo'xoridan tayyorlanadigan fransuz milliy taomi hisoblanadi. Badiiy adabiyot orqali xalqning milliy taomlarini bilib olish mumkinligi ushbu parchadan ma'lumdir.

Yoki aynan ushbu asardan olingan yana bir parchaga diqqat qaratish o'rinli bo'ladi:

Asardan parcha:

L'eau de la montagne ruisselait jusque dans les rues. Des petits marchands criaient les croissants et les pains au lait.

Shoazim Minavvarov tarjimasi :

Tog' suvi ko'chalarda jilg'a bo'lib oqardi. Chakana savdo qiluvchilar sutga qorilib yopilgan non va teshikkulchalar sotishardi.

XULOSA

Bu parchada, “croissant” so'zi o'zbek tiliga teshik kulcha deb tarjima qilingan. Aslida esa, teshik kulcha bu umuman boshqacha shirinlik hisonlanadi va cruassant fransuzlarning qandolatchilik mahsulotlari qatoridan joy olgan dessertlardan biridir. Kruassanning yaratilish tarixiga nazar solinsa, u dastlab XVII asr oxirida Venada istiqomat qilayotgan turklarning mashhur novvoyi Adam Spiyelning tongda dushmanlar kelishidan yurtdoshlarini ogohlantirishi sharafiga tayyorlangan. XX asrdan keyingina, hozirgi kruassant resepti fransuz milliy oshxonasi va gastronomiyasining ramzi bo'lib kelmoqda. 1950-yillardan boshlab, bu shirinlik fransuzlarning odatiy nonushtadagi mahsulotiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.cia-france.fr Les cultures et les traditions francais
2. Les particularités des expressions idiomatiques à motivation culturelle-Marine Sioridze
3. La restruction du reseau culturel francais au quotidien-journals.openedition.org
4. La langue Francaise : des Mots Temoins d'une Culture Superprof.fr> blog /francais-culture...linguistique/..
5. A. L. KROEBER et C. KLUCKHOHN, Culture : a critical review of concepts and definitions
6. Le Klezioning “Mondo” asari
7. Le Crezio “Mondo et d'autres histoires”

8. Francois Mauriac « Le noeud des viperes »
9. Fransua Moriak « Ilonlar changalida »
10. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D1%80%D1%83%D0%B0%D1%81%D1%81%D0%B0%D0%BD>
11. [https://fr.m.wikipedia.org/wiki/Cruchade#:~:text=La%20cruchade%20\(en%20gascon%2C%20cruishada,sud-ouest%20de%20la%20France](https://fr.m.wikipedia.org/wiki/Cruchade#:~:text=La%20cruchade%20(en%20gascon%2C%20cruishada,sud-ouest%20de%20la%20France)
12. <https://www.gerbeaud.com/cuisine/cruchades-sud-ouest,1366.html>
13. <https://www.cnrtl.fr/definition/cruchade>